

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

**SPORT UNVONLARI VA
SPORT RAZRYADLARINI
BERISH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

**Sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo'yicha
uslubiy qo'llanma.** T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi,
2025-yil. – 28 bet.

Mazkur qo'llanma sport unvonlari va razryadlarini berish tartibi hamda tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarni sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma sport sohasidagi davlat xizmatchilari, sport tashkilotlari xodimlari, sportchilar hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar	3
Kirish	4
Sport unvonlari va sport razryadlari	5
Sport unvonlari va razryadlarini berish tartibi	6
Sport unvonlari va razryadlarini olishda yagona sport tasnifi ahamiyati	9
Davlat xizmatini ko'rsatishni rad etish	15
Sport unvoni yoki razryadi guvohnomasini almashtirish	18
Ilovalar	19

Sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar

“Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Qonun	
O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining “Sport turlari bo'yicha yagona sport tasnifi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (2017-yil 28-avgustda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2921)	
Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-noyabrdagi “Sportchilarga sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 588-son qarori	

KIRISH

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, 2030-yilga qadar **razryadli va unvonli sportchilar sonini 25 ming nafarga yetkazish** ko‘zlanmoqda.

O‘z navbatida, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid **davlat dasturi doirasida** 2025-yil yakuniga qadar sport razryadi va unvoniga ega sportchilar sonini oshirib, **razryadli va unvonli sportchilar sonini 15 ming nafarga yetkazish vazifasi** qo‘yilganligi bejiz emas.

Bu maqsadga erishishda sport sohasidagi davlat xizmatchilari, sport tashkilotlari xodimlari, sportchilarning sport unvonlari va sport razryadlari, ularni berish tartibi va Yagona sport tasnifining ahamiyati xususidagi bilim va malakasini oshirish, shu jumladan, belgilangan tartib-taomillarni sodda va oson tilda tushuntirish muhimdir.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan **Sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma** sport unvonlari va razryadlarini berish tartibi, tegishli qonunchilik hujjatlari, bu yo‘nalishda davlat xizmatini ko‘rsatishni rad etish asoslari hamda sport unvoni yoki razryadi guvohnomasini almashtirish kabi masalalarni qamrab oladi.

SPORT UNVONLARI VA SPORT RAZRYADLARI

Sportchining arizasiga ko'ra unga belgilangan tartibda quyidagi **sport unvonlari** beriladi:

- 🏆 Xalqaro toifadagi O'zbekiston sport ustasi;
- 🏆 O'zbekiston sport ustasi;
- 🏆 O'zbekiston grossmeysteri.

Sportchining arizasiga ko'ra unga belgilangan tartibda quyidagi **sport razryadlari** beriladi:

- ✔ O'zbekiston sport ustaligiga yoki O'zbekiston grossmeysterligiga nomzod;
- ✔ **birinchi** sport razryadi;
- ✔ **ikkinchi** sport razryadi;
- ✔ uchinchi sport razryadi;
- ✔ o'smirlar uchun birinchi sport razryadi;
- ✔ o'smirlar uchun ikkinchi sport razryadi;
- ✔ o'smirlar uchun uchinchi sport razryadi beriladi.

Diqqat! Xalqaro grossmeyster sport unvoni tegishli **xalqaro sport tashkiloti tomonidan** beriladi.

Xalqaro grossmeyster sport unvonini olgan sportchilar **Xalqaro toifadagi O'zbekiston sport ustasi** sport unvonini olgan sportchilarga tenglashtiriladi.

SPORT UNVONLARI VA RAZRYADLARINI BERISH TARTIBI

Sport unvonlarini berish tartibi

Sport unvonlari Sport vazirligi tomonidan beriladi:

Respublika **sport federatsiyalari (uyushmalari)** yoki ularning hududiy bo'linmalarining taqdimnomalariga asosan

Sport klublarining taqdimnomalariga asosan

O'zbekiston Mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti Markaziy Kengashining taqdimnomalariga asosan

O'zbekiston Respublikasi **Mudofaa vazirligining**
Markaziy harbiy sport klubining taqdimnomalariga asosan

Diqqat! Sport unvonlari va sport razryadlari sportchilarga **umrbod** beriladi.

Sport razryadlarini berish tartibi

Sport razryadlari quyidagi holatlarda beriladi:

Sport turlarini rivojlantirish respublika markazlari sportchilariga	Ixtisoslashtirilgan sport maktablari sportchilariga	Sport maktablari sportchilariga	“Vatanparvar” tashkilotining mintaqaviy kengashlari sportchilariga
--	--	--	---

Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy sport klubi sportchilariga

Ushbu tashkilotlarning **taqdimnomasiga** asosan

1. **O‘zbekiston sport ustaligiga nomzod razryadi**

2. **O‘zbekiston grossmeysterligiga nomzod razryadi**

3. **Birinchi sport razryadi**

Qat’iy ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar **sport boshqarmalari** tomonidan

✔ Qat’iy ravishda quyidagi tashkilotlar tomonidan **2 va 3-sport razryadlari**, o‘smirlar uchun **1, 2 va 3-sport razryadlari** sportchilar trenerlarining taqdimnomalariga asosan beriladi:

- 📌 Ixtisoslashtirilgan sport maktablari sportchilariga;
- 📌 Sport maktablari sportchilariga;
- 📌 “Vatanparvar” tashkilotining mintaqaviy kengashlari sportchilariga;
- 📌 Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy sport klubi sportchilariga.

O'rta maxsus, professional ta'lim hamda oliy ta'lim muassasalarining sportchilariga

sportchilar trenerlarining taqdimnomalariga asosan


birinchi sport razryadi	ikkinchi va uchinchi sport razryadlari
qat'iy ravishda O'zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi tomonidan	qat'iy ravishda O'zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasining mintaqaviy bo'limlari tomonidan

Boshqa jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari sportchilariga

ushbu tashkilotlarning yoxud sport federatsiyalarining (uyushmalarining) yoki ularning hududiy bo'linmalarining taqdimnomalariga asosan

O'zbekiston sport ustaligiga, O'zbekiston grossmeysteriga nomzodlar, birinchi, ikkinchi va uchinchi sport razryadlari, o'smirlar uchun birinchi, ikkinchi va uchinchi sport razryadlari	sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha ikkinchi va uchinchi sport razryadlari, o'smirlar uchun birinchi, ikkinchi va uchinchi sport razryadlari
tegishliha Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari tomonidan	tegishliha "Vatanparvar" tashkilotining mintaqaviy kengashlari tomonidan

SPORT UNVONLARI VA RAZRYADLARINI OLISHDA YAGONA SPORT TASNIFI AHAMIYATI



Sport turi bo'yicha **Yagona sport tasnifi** (YAST) mavjud bo'lmasa, ushbu sport turi bo'yicha **sport unvonlari** va **sport razryadlari berilmaydi**.



YAST Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari o'tkazilishining davriyligini inobatga olib, har 4 yilda bir marta **kelgusi 4 yil muddatga** Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan yil yakuniga qadar **sport vazirining buyrug'i** bilan tasdiqlanadi.

*Bunda sport federatsiyalarining (uyushmalarining), sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha esa – "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy Kengashining **taqdimnomalari** asos bo'ladi.*

Ariza beruvchilarga davlat xizmati quyidagilar tomonidan ko'rsatiladi:

- ✔ **sport unvonlari olish uchun** – Sport vazirligi tomonidan;
- ✔ **sport razryadlari olish uchun** – doimiy yashash hududidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari (hududiy boshqarmalar) tomonidan.

*Bunda ariza beruvchi sport unvonlari va sport razryadlarini olish uchun **istalgan Davlat xizmatlari markaziga** murojaat qiladi yoki **YIDXPda** davlat xizmatidan elektron shaklda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi.*



Ariza beruvchining murojaatiga asosan Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchining nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa – ariza beruvchi **so'rovnomani** elektron shaklda to'ldiradi.

So'rovnoma qaydagi hujjatlar ilova qilinadi:

Sport unvonlarini olishda:

📌 agar ariza 16 yoshga to'lmagan shaxsning qonuniy vakili tomonidan berilsa, uning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) va bolaning **qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat**;

📌 rasmiy sport musobaqalari-dagi yutuqlari aks ettirilgan **diplomlar (sertifikatlar)**, ushbu musobaqa bayoni (protokol) nusxasi;

📌 sport unvonini berish to'g'risidagi **taqdimnoma**;

📌 **sport pasportining nusxasi** (agar mavjud bo'lsa).

Sport razryadlarini olishda:

📌 agar ariza 16 yoshga to'lmagan shaxsning qonuniy vakili tomonidan berilsa, uning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) va bolaning **qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat**;

📌 sport razryadlarini berish to'g'risidagi **taqdimnoma**;

📌 rasmiy sport musobaqalari-dagi yutuqlari aks ettirilgan **diplomlari (sertifikatlari) nusxasi** (agar mavjud bo'lsa);

📌 **sport pasportining nusxasi** (agar mavjud bo'lsa).

Diqqat! Ariza beruvchidan yuqoridagidan **boshqa ma'lumotlar** va **hujjatlarni** taqdim qilishni talab qilish **qat'iyon taqiqlanadi**. Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning to'g'riligi va haqqoniyligi uchun ariza beruvchi shaxsan javobgar hisoblanadi.

✔ Ma'lumotlar so'rovnoma kiritilgandan so'ng ariza beruvchi **ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi** va imzolarni **identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalari** (elektron imzo, daktiloskopiya, yagona identifikatsiya tizimidagi login va parol, Mobil-ID va boshqalar) bilan tasdiqlaydi.



Ma'lumot uchun: Ariza beruvchi YIDXP orqali murojaat etgan taqdirda, so'rovnomani **ERI bilan tasdiqlash** talab etilmaydi.

So'rovnoma tasdiqlangach avtomatik ravishda tegishliligi bo'yicha Sport vazirligi yoki uning hududiy boshqarmasiga yuboriladi.



So'rovnomaga ilova qilingan **hujjatlar va ulardagi ma'lumotlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi** Davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan tekshirib olinadi.

Diqqat! Davlat xizmati **bepul** ko'rsatiladi.

Arizani ko'rib chiqish tartibi

Ariza beruvchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida **bosh tortish huquqiga** ega.



✓ Ariza beruvchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan bosh tortganda, uning **so'rovnomasi ko'rilmadan qoldiriladi**.



Ariza beruvchi:

Davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etganda

So'rovnoma **markaz xodimi tomonidan** to'ldiriladi

Ariza beruvchi tasdiqlagandan so'ng 10 daqiqa ichida sport unvonlarini olish bo'yicha Sport vazirligiga yoki sport razryadlarini olish bo'yicha vazirlikning hududiy boshqarmasiga elektron shaklda yuboriladi

YIDXP orqali murojaat etganda

So'rovnoma **avtomatik tarzda** to'ldiriladi


Sport unvonlarini olish bo'yicha Sport vazirligiga yoki sport razryadlarini olish bo'yicha vazirlikning hududiy boshqarmasiga elektron shaklda yuboriladi

✔ Ariza tegishliligi bo'yicha Sport vazirligi yoki uning hududiy boshqarmasiga kelib tushgan kundan boshlab **5 ish kuni ichida** vazirlik yoki boshqarma tomonidan:



- 📍 sportchining so'rovnomasida ko'rsatilgan ma'lumotlar tekshiriladi;
- 📍 sportchining sport unvoni yoki sport razryadi rasmiylashtiriladi;
- 📍 rasmiylashtirilgan sport unvoni yoki sport razryadi yagona elektron boshqaruv tizimida qayd etiladi.

✓ Agar so'rovnomaga ilova qilingan hujjatlarning haqiqiylikini "ERP sport" yagona elektron boshqaruv tizimi orqali aniqlashning imkoni bo'lmasa, tegishlilik bo'yicha Sport vazirligi yoki uning hududiy boshqarmasi sport unvonini yoki razryadini berish to'g'risidagi taqdimnomani rasmiylashtirgan tashkilotga **ilova qilingan hujjatlarning haqiqiylikini tasdiqlash bo'yicha** murojaat yuboradi.



*Bunda Sport vazirligi yoki uning hududiy boshqarmasi tomonidan yuborilgan so'rovning elektron shakli (pdf formatda) idoralararo elektron tizimga joylashtirilganda, arizani ko'rib chiqish muddati **15 ish kuniga uzaytiriladi** hamda ariza beruvchiga YIDXP orqali elektron shaklda xabarnoma yuboriladi.*

Sport vazirligi yoki uning hududiy boshqarmasi sport unvoni yoki razryadi to'g'risidagi **guvohnoma** yoxud asoslangan **rad javobini berish haqidagi ma'lumotni QR-kod qo'yib rasmiylashtiradi** hamda uni o'z ERIsi bilan tasdiqlaydi.



📌 Guvohnoma yoxud rad javobini berish haqidagi ma’lumot **1 ish kuni ichida** Davlat xizmatlari markaziga yoki ariza beruvchiga YIDXP orqali elektron shaklda yuboriladi.

📌 Ariza beruvchi sport unvoni yoki sport razryadi rasmiylashtirilganligi to’g’risidagi **xabarnomani olgach** Davlat xizmatlari markaziga kelib, elektron shakldagi sport unvoni yoki razryadini tasdiqlovchi **guvohnomani olish huquqiga ega** bo’ladi.
(5-6-ilovalarga qarang)

📌 So’rovnomada ariza beruvchi tomonidan davlat xizmatlarini ko’rsatishning natijasini olib ketishga mas’ul shaxs ko’rsatilgan holatlarda davlat xizmatlarini ko’rsatishning natijasini ushbu shaxsga taqdim etishda tegishli ishonchnoma talab etilmaydi.



DAVLAT XIZMATINI KO'RSATISHNI RAD ETISH

Davlat xizmatini ko'rsatishni rad etish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:

✗ ariza beruvchi tomonidan so'rovnomada **noto'g'ri ma'lumotlarning ko'rsatilishi**;

✗ **sport unvonlarini olishda** quyidagilar to'liq ilova qilinmaganda:

- ✔ agar ariza 16 yoshga to'lmagan shaxsning qonuniy vakili tomonidan berilsa, uning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) va bolaning **qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat**;

- ✔ rasmiy sport musobaqalaridagi yutuqlari aks ettirilgan **diplomlari (sertifikatlari)**, ushbu musobaqa bayoni (protokol) nusxasi;

- ✔ sport unvonini berish to'g'risidagi **taqdimnoma**;

- ✔ **sport pasportining nusxasi** (agar mavjud bo'lsa);

✗ **sport razryadlarini olishda** quyidagilar to'liq ilova qilinmaganda:

- ✔ agar ariza 16 yoshga to'lmagan shaxsning qonuniy vakili tomonidan berilsa, uning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) va bolaning **qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat**;

- ✔ sport razryadlarini berish to'g'risidagi **taqdimnoma**;

- ✔ rasmiy sport musobaqalaridagi yutuqlari aks ettirilgan **diplomlari (sertifikatlari) nusxasi** (agar mavjud bo'lsa);

- ✔ **sport pasportining nusxasi** (agar mavjud bo'lsa).

✗ taqdimnomani rasmiylashtirgan tashkilotga yuborilgan so'rov natijasiga ko'ra so'rovnoma ilova qilingan **hujjatlarning haqiqiy emasligi** aniqlanganda.

Diqqat! Davlat xizmatini ko'rsatishni **boshqa asoslar bo'yicha rad etish taqiqlanadi.**



Kamchiliklar aniqlanganda, **Sport vazirligi** yoki uning **hududiy boshqarmasi** ariza beruvchiga **1 ish kuni ichida** kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risida **xabarnoma** yuboradi.



Xabarnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:



taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan kamchiliklar



kamchiliklarni bartaraf etish usullari



ariza beruvchi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilib, tegishli hujjatlarni ko'rib chiqish uchun takroran taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat

Xabarnomada ko'rsatilgan **muddat** kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga **mutanosib bo'lishi**, lekin **5 ish kunidan** kam bo'lmasligi lozim.



✔ Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha xabarnoma yuborilgan taqdirda, arizani ko'rib chiqish muddati **xabarnomada ko'rsatilgan muddatga** to'xtatib turiladi.



Sport vazirligi
yoki uning **hududiy boshqarmasi**

Hujjatlar ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etmasdan yoki ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin taqdim etilganda



sport unvoni yoki razryadini berishni **rad etish haqida qaror** qabul qilishga haqli.

✔ *Bunda sport unvoni yoki razryadini berishni kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilmagan **yangi asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.***

Quyidagi hollarda Sport vazirligi yoki uning hududiy boshqarmasi YIDXP orqali ariza beruvchini xabardor qiladi:

✚ taqdimnomani rasmiylashtirgan tashkilotga yuborilgan so'rovga **15 ish kunida** javob olinmaganda;

✚ murojaatga ilova qilingan hujjatlarning haqiqiy yoki haqiqiy emasligi haqida kechikib javob olinganda.

✔ *Bunda murojaatga ilova qilingan hujjatlarning haqiqiyligi taqdimnomani rasmiylashtirgan tashkilot tomonidan **15 ish kuni o'tib tasdiqlanganda**, ariza beruvchi belgilangan talablarga muvofiq **takroran murojaat etmasdan**, unga sport unvoni yoki sport razryadini tasdiqlovchi guvohnoma beriladi.*

SPORT UNVONI YOKI RAZRYADI GUVOHNOMASINI ALMASHTIRISH

Sportchining familiyasi,
ismi va (yoki) otasining
ismi o'zgarganda



sport unvoni yoki sport
razryadi guvohnomasi
almashtiriladi.

**Guvohnomani qayta rasmiylashtirish uchun hujjatlar Sport vazirligi
yoki uning hududiy boshqarmasiga quyidagi usullar orqali taqdim
etiladi:**

Davlat xizmatlari markazi

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)

Guvohnomani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi
ariza oldin berilgan guvohnoma ilova qilingan holda,
Sport vazirligi yoki hududiy boshqarmaga kelib tushgan
kundan boshlab **5 ish kuni ichida sport unvoni** yoki
razryadi guvohnomasi qayta rasmiylashtirib beriladi.



Sport unvoni yoki razryadi guvohnomasini qayta
rasmiylashtirishda **reyestr**ga **tegishli o'zgartirishlar**
kiritiladi.



Sport unvoni yoki razryadi guvohnomasini qayta
rasmiylashtirishda, guvohnomani berganlik uchun **yig'im**
undirilmaydi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR IZOHI

Yagona sport tasnifi	sport turlari reyestriga kiritilgan sport turlari bo'yicha tegishli sport unvonlari va razryadlarini berish uchun bajarilishi zarur bo'lgan normalar hamda talablar , shuningdek, ularni bajarish shartlari
Sportchi	tanlagan sport turi yoki turlari bilan muntazam shug'ullanadigan , o'zining sport mahoratini doimiy oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs
Sport musobaqasi	sportchilar o'rtasida yoki sportchilar jamoalari o'rtasida sport turlari bo'yicha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan o'tkaziladigan bellashuv
Sport turi	jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi
Sport tadbirlari	sport musobaqalarini , o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladigan jarayonlar
Sport unvonini berish to'g'risida taqdimnoma	respublika sport federatsiyalari (uyushmalari) yoki ularning hududiy bo'linmalari, sport klublari, "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy Kengashi va Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy sport klubi rahbari (yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs) tomonidan imzolangan va tashkilot muhri bilan (muhr mavjud bo'lganda) tasdiqlangan holda, ariza beruvchining 2 yil ichidagi YAST normalari va talablari,

	shuningdek, ularni bajarish shartlari bajarilganligi hamda rasmiy sport musobaqalari yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi hujjat <i>(2-ildovaga qarang)</i>
Sport razryadlarini berish to'g'risidagi taqdimnoma	sport-ta'lim tashkilotlari, respublika sport federatsiyalari (uyushmalari) yoki ularning hududiy bo'linmalari, sport klublari, "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy Kengashi yoki uning mintaqaviy kengashlari, Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy sport klubi, O'zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi yoki uning mintaqaviy bo'limlari rahbari (yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs) tomonidan imzolangan va tashkilot muhri bilan (muhir mavjud bo'lganda) tasdiqlangan holda, ariza beruvchining 6 oy ichidagi YAST normalari va talablari, shuningdek, ularni bajarish shartlari bajarilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi hujjat <i>(2-ildovaga qarang)</i>
Sportning texnik va amaliy turlari	sport natijalariga erishish uchun sportchi tomonidan umumiy jismoniy mashqlar majmuasidan tashqari sport texnikasidan, moslamalaridan yoki texnika vositalaridan foydalana bilish va ularni boshqarish sohasidagi ko'nikmalar va mahorat qo'llaniladigan, shuningdek, sport turlaridan olingan, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mashqlar birikmasidan foydalaniladigan sport turlari

Sport unvoni yoki sport razryadini berish to'g'risida taqdimnoma namunasi

Taqdimnoma		Unvon/Razryad	Sportchining 3x4 o'lchamli rangli fototurati
Sport turi	-		
F.I.O.	-		
Millati	-	Tug'ilgan sanasi: (kuni, oy, yil)	-
Sport bilan shug'ullanish staji	-	Sportchini tayyorlagan murabbiylarning F.I.O	-
Asosiy ko'rsatkichlari (normativlari)			
Bajarilish sanasi (kun, oy, yil)	Musobaqa nomi (soha kodi)	Musobaqa darajasi, toifasi	Ko'rsatilgan natija
-	-	-	-
Rasmiy sport musobaqalaridagi yutuqlari (agar mavjud bo'lsa)			
Musobaqa nomi	Musobaqa sanasi (kun, oy, yil)	Musobaqa o'tkazilgan joy	Ko'rsatgan natijasi
-	-	-	-
Vakolatli tashkilotning nomi		-	
Ta'lim muassasasi (ish joyi), lavozimi		-	
Joylashgan manzili.		-	
Boshlang'ich jismoniy tarbiya tashkiloti		-	
Rahbar		_____	F.I.O.
(imzo, muhr)			
Sana: ____-yil " ____ " _____			

Sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish sxemasi

Bosqich	Mas'ullar	Chora-tadbirlar	Bajarish muddati
1	Ariza beruvchi	Davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelgan holda yoki YIDXP orqali murojaat qiladi.	YAST normalari va talablari, shuningdek, ularni bajarish shartlari bajarilgan kundan boshlab 2 yil ichida
2	1. Davlat xizmatlari markazi	1. Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchi nomidan tegishli so'rovnomanini to'ldiradi va elektron shaklda sport unvonlarini olish bo'yicha Sport vazirligiga, sport razryadlarini olish bo'yicha Sport vazirligining hududiy boshqarmasiga yuboradi.	10 daqiqa ichida
	2. YIDXP	2. To'ldirilgan so'rovnomanini YIDXP orqali sport unvonlarini olish bo'yicha — Sport vazirligiga, sport razryadlarini olish bo'yicha – Sport vazirligining hududiy boshqarmasiga yuboradi.	Avtomatik tarzda.
3	Sport vazirligi va uning hududiy boshqarmasi	1. So'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlarni o'rganib chiqadi. 2. Sport unvoni yoki sport razryadini berish yoxud berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. 3. Sport unvoni yoki sport razryadini berish to'g'risida qaror qabul qilinganda, shu kunning o'zida QR-kod qo'yilgan guvohnomani rasmiylashtiradi va ERIsi bilan tasdiqlab, tegishli Davlat xizmatlari	Murojaat kelib tushgandan so'ng 5 ish kunida (arizani ko'rib chiqish muddati uzaytirilgan holatlar bundan mustasno)

4

	markaziga (o'zi murojaat etganda) yoki ariza beruvchiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat etganda) elektron shaklda yuboradi. 4. Sport unvoni yoki sport razryadini berish rad etilganda, bu haqda ariza beruvchiga YIDXP orqali elektron shaklda xabarnoma yuboradi.	
Davlat xizmatlari markazi yoki YIDXP	1. Sport unvoni yoki sport razryadi guvohnomasini elektron shaklda talabgorning elektron manziliga yuboradi va uni bu haqda axborot-kommunikatsiya tizimi orqali xabardor qiladi. 2. Ariza beruvchi Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qilgan taqdirda, uning so'roviga ko'ra unga sport unvoni yoki sport razryadi guvohnomasini elektron yoki qog'oz shaklda beradi.	Sport unvoni yoki sport razryadi guvohnomasi elektron shaklda kelib tushgandan so'ng 10 daqiqa mobaynida Ariza beruvchining so'roviga ko'ra

**Sport unvonlari va sport razryadlarini berish bo'yicha davlat
xizmatlaridan foydalanish uchun so'rovnoma namunasi**

Ariza t/r	Qabul qilish sanasi	Qabul qilgan shaxs
-	-	-
Xizmat turi	Sport unvoni yoki sport razryadini olish	
I. Ariza beruvchi haqida ma'lumot:		
1.1. F.I.O.:	-	
1.2. Tug'ilgan sanasi:	kun/oy/yil	
1.3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo'lsa):	-	
1.4. Telefon raqami:	-	
1.5. Elektron pochta manzili:	-	
1.6. Yashash joyi:	tuman (shahar), viloyat, respublika	
II. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs va uning qonuniy vakili haqidagi ma'lumotlar:		
2.1.1. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsning F.I.O.:	-	
2.1.2. Tug'ilgan sanasi:	yil/kun/oy	
2.1.3. Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma raqami:		
2.2.1. Bolaning qonuniy vakili F.I.O. Bunda bolaning qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi (ota-onasi tomonidan topshirilgan arizalar bundan mustasno):	ilova qilinadi <i>(pdf, png, jpg, jpeg formatda)</i>	
2.2.2. Qonuniy vakilining shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR):	-	
2.2.3. Telefon raqami:	-	

2.2.4. Elektron pochta manzili:	-
2.2.5. Doimiy yashash joyi:	tuman (shahar), viloyat, respublika
III. Sport unvonlari va sport razryadlarini olish haqidagi ma'lumotlar:	
Sport unvonlarini olish bo'yicha	
3.1. Sport unvonlari turi	(tanlanadi)
3.2. Rasmiy sport musobaqalaridagi yutuqlari aks ettirilgan diplomlar (sertifikatlari) nusxasi	(ilova qilinadi)
3.3. Sport unvonini berish to'g'risidagi taqdimnoma	(ilova qilinadi)
3.4. Sport pasportining nusxasi (agar mavjud bo'lsa)	
Sport razryadlarini olish bo'yicha	
3.5. Sport razryadlari turi	(tanlanadi)
3.6. Sport razryadlarini berish to'g'risidagi taqdimnoma	(ilova qilinadi)
3.7. Rasmiy sport musobaqalaridagi yutuqlari aks ettirilgan diplomlar (sertifikatlar) nusxasi (agar mavjud bo'lsa)	(ilova qilinadi)
3.8. Sport pasportining nusxasi (agar mavjud bo'lsa)	(ilova qilinadi)
IV. Davlat xizmatini ko'rsatish natijasini olib ketuvchi shaxs (agar mavjud bo'lsa) to'g'risidagi ma'lumotlar:	
JSHSHIR	

Sport turlari bo'yicha sportchiga sport unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma namunasi



O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi

Sport turlari bo'yicha sportchiga sport unvoni berilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

XTSU № 000000

F.I.O. _____

Sport turi _____

“_____” sport unvoni berildi.

Vakolatli shaxs

QR-kod



Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi [nizomga](#) muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi.

Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun [edoc.gov.uz](#) veb-saytiga o'ting va elektron hujjatning noyob raqamini kiriting yoki mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling.

Diqqat! Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son [qaroriga](#) muvofiq elektron hujjatlardagi ma'lumotlar qonuniy hisoblanadi. Davlat organlariga Yagona portalda shakllantirilgan elektron hujjatlarning nusxalarini qabul qilishni rad etishlari qat'iyon taqiqlangan.

Sport turlari bo'yicha sportchiga sport razryadi berilganligi to'g'risidagi guvohnoma namunasi



Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport
boshqarmalari

Sport turlari bo'yicha sportchiga sport razryadi berilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

SR № 000000

F.I.O. _____

Sport turi _____

“ _____ ” sportrazryadi

berildi.

Vakolatli shaxs

QR-kod



Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi *nizomga* muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi.

Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun *edoc.gov.uz* veb-saytiga o'ting va elektron hujjatning noyob raqamini kiriting yoki mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling.

Diqqat! Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son *qaroriga* muvofiq elektron hujjatlardagi ma'lumotlar qonuniy hisoblanadi. Davlat organlariga Yagona portalda shakllantirilgan elektron hujjatlarning nusxalarini qabul qilishni rad etishlari qat'iyon taqiqlangan.

[illegible]